

PEDAGOG NUTQIDA NUTQ MADANIYATI XUSUSIYATLARI

Tursunova Shaxnoza

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti**Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: *Nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Haqiqiy ma'nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasining favqulodda muhim unsurlaridan biridir. Shuning uchun ham mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'tirof etilgan bugungi kunda nutq madaniyati masalalari, o'qituvchilarning nutqiy madaniyati mahorati, bolalarning madaniy nutq ko'nikmalari va malakalarini oshirish, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida madaniy nutq muammolarini yetarli darajada nazarda tutish har qachongidan ham dolzarbdir.*

Kalit so'zlar. *Nutq madaniyati, nutq me'yorlari, yozma va og'zaki nutq.*

Insonlar nutq yordamida kim ekanligini, o'zining fikr his-tuyg'ularini, orzu - istaklarini bayon etadi va boshqalarning fikr va maqsadlarini anglab olishadi. Nutq albatta til orqali namoyon bo'ladi. Nutq madaniyati muammosi tilshunoslarning eng murakkab va dolzarb muammolaridan biridir. Inson taraqqiyotini til va madaniyatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Lingvistik ong til orqali madaniy ong bilan uzviy bog'liqdir. Eng yaxshi o'qituvchilarning madaniy, shaxsiy rivojlanishiga yo'naltirishga, ular uchun tilning kognitiv, kommunikativ, epistemik funksiyalarini ochib berishgan. Nutq madaniyati nutqning adabiy til me'yor-mezonlariga asoslangan, mantiq ilmi talablarga bo'ysingan holda namoyon bo'ladi. Nutq tafakkur va fikrlashda o'zaro muloqot yordamida fikr almashish vositasining har bir kishiga xos shakli, ko'rinishidir. Nutq madaniyatining asosiy xususiyati uni ilmiy, aniq-ravshan, ravon, to'g'ri, ta'sirli, badiiy, mantiqiy, jarangdor, jozibali bayon etishdan iborat. Buning uchun nutq, avvalo, adabiy til qonun-qoidalariga to'liq javob berishi lozim. Nutq madaniyati yakka shaxslar, chunonchi, pedagog, suxandon, davlat va jamoat arbobi, jurnalist, muxbir va shu kabilarning nutqlari orqali namoyon bo'ladigan ijtimoiy hodisa hisoblanadi.

Nutq madaniyati- ijtimoiy madaniyatni, kishilik jamiyat madaniyatini aks ettiruvchi bir ko'zgudir. Nutq madaniyati adabiy tilning har ikki shakli - yozma va og'zaki shakli uchun zarurdir. Nutq madaniyatiga e'tibor yolg'iz o'qituvchilardan emas, balki har bir fuqarodan ongli ravishda o'zlashtirish talab qilinadigan insoniy fazilatlardan biridir. Uni egallash har bir o'qituvchining va shaxsning madaniy saviyasi va bilimiga bog'liq. O'qituvchi pedagogik mahoratidan nutq madaniyati, uning nafaqat ma'naviy va axloqiy jihatdan boyligini, balki bilimini, tafakkurni, ilmiy dunyoqarashini, fikr va mushohada yuritishni belgilovchi me'yordir. O'qituvchining nutq madaniyati birdaniga shakllanib maromiga yetadigan jarayon emas, u pedagogik mahorat bilan, kasb faoliyati davomida, tajribali ustozlar o'giti natijasida yillar davomida takomillashib, sayqallanib

boraveradi. Har bir o'qituvchi o'z o'quvchilariga nutqni to'g'ri talqin qilishga yordam beradi.

Nutq madaniyati til ilmining nisbatan yosh sohasidir. Ushbu fanning mustaqil bo'limi sifatida, u mamlakatimizda yuz bergan tub ijtimoiy o'zgarishlar ta'siri ostida shakllandi. Faol ijtimoiy faoliyatga keng odamlarni jalb qilish ularning nutq madaniyatini oshirishga e'tiborni kuchaytirishni talab qildi". Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa bo'lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas bog'lik holda taraqqiy etadi. Jamiyat a'zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, nutq madaniyati qoidalari va me'yorlariga muvofiq holda takomillashib boradi. Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida adabiyot, san'at, radio, televideniye va davriy matbuotning alohida o'rni bor. Ayniqsa, adabiy tilni me'yorlashtirish va nutq madaniyati nazariyasini rivojlantirishda leksikografiya, xususan, izohli, imlo, talaffuz, o'quv va boshqa maxsus lug'atlar muhim ahamiyatga ega. Madaniyatning keng tushunchasi, shubhasiz, aloqa madaniyati, nutq xulq-atvori madaniyati deb nomlanadigan narsani o'z ichiga oladi. Unga egalik qilish uchun nutq odob-axloqining mohiyatini tushunish muhimdir.

Shuningdek nutq madaniyati asosida nutq odob-axloqi paydo bo'ldi, unga asosan suhbatdoshlar o'rtasida nutq aloqasini o'rnatish, tanlangan kalitda ularning ijtimoiy rollari va bir-biriga nisbatan roli pozitsiyalariga, rasmiy va norasmiy munosabatlardagi o'zaro munosabatlarga muvofiq muloqotni ta'minlash uchun jamiyat tomonidan belgilangan barqaror aloqa formulalari tizimi - so'zlamalaridir. Masalan, o'zbek odob-axloqining milliy o'ziga xosligi xalqimizning maqol va dostonlarida o'z ifodasini topgan.

Nutqning ta'sir qiluvchi tomoni, avvalo, uning mazmunini, shuningdek, nutqning tushunarli va ifodali bayon etilishiga bog'liqdir. Shuning uchun sodda, tushunarli, mantiqiy gapiish kerak. Notiq nutq yordamida tinglovchilarda ong'li harakatga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bunga, avvalo turli formadagi iltimoslar, buyruq, talab, taqiqlash, mann qilish, ruxsat bermaslik, do'q urish, ta'na qilish orqali erishiladi. Notiq takliflar, noto'g'ri harakatlarning oldini olish yoki ogohlantirish, maslahat yoki tavsiya qilish, yo'llanma berish kabi formalardan ham foydalanadi. Lektor-notiq lektsiyaning ta'sirchanligini, hayotiylikini, badiiy qimmatini oshirish maqsadida o'z lektsiyalarini badiiy adabiyotlardan keltirilgan misollar, tarixiy, harbiy arboblarning buruqlaridan olingan tsitatlar asosida boyitish lozim. Lekin shuni ham unutmaslik kerakki, badiiy adabiyotlardan olingan parchalarni tinglovchilarga etkazishda o'sha parchaga xos intonatsiyaning saqlab qolish muhim rol o'ynaydi.

Nutqning aloqa madaniyati-bu til vositasi yordamida to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish madaniyatidir. Informatsiya va aloqa nazariyasi turli sharoitlardagi muomila-munosabatlarning yordami natijasida olinadigan informatsiyalarning umumiy qonunlarini ifoda qiladi. Notiq-lektor informatsiyaning chinakam manbai, uning nutqi esa ma'lumotlarning maxsus ravishda tashkil qilingan sistemasidir. Nutqning auditoriya tomonidan lektor istaganidek qabul qilinishi va tushunilishi uchun notiq tomonidan harakat programmasi avvaldan yaxshilab o'ylangan bo'lishi va shu asosda bajarilishi kerak.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Nutq madaniyati muammosi hozirgi kunda juda dolzarb masala hisoblanadi. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, nutq madaniyati barcha insonlar nutqini ravon va to'g'ri ifoda etishiga imkon yaratadi. Nutq madaniyati tilshunoslikda ham eng muhim masala hisoblanadi. Uni chuqurroq o'rganish talab qilinadi. Yosh avlodning nutqini boyitishni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Har bir kishi nutq me'yorlariga amal qilgan holda muloqotda bo'lishi kerak. Jamiyatdagi barcha insonlar nutqni to'g'ri talqin qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva B.A. O'zbek tili va nutq madaniyati: darslik. Samarqand: Ilm-fan, 1999.
2. Begmatov E., Qung'urov R., Tojiev Y., Nutq madaniyati va uslubi asoslari. T.: O'qituvchi, 1992.
3. Sattorov M.C. Nutq madaniyati asoslari // Til va adabiyot ta'limi. №5. 2021.
4. Кудряцев В.Д. Основа ораторского искусства. Изд-3. Иркутск: наука, 2021.
5. Шарипов Б.Ш. О литературном языке // Русский язык в национальных школах. 2022.

